



ASHTARXONIYLAR DAVRIDA ILM-FAN, MADANIYAT VA ME’MORCHILIK

Jo‘rayeva Orzigul

BuxDPI tarix ta’lim yo‘nalishi 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ashtarxoniylar davri (1599-1753) Movarounnahr tarixidagi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davr ilm-fan, me’morchilik va madaniyat rivojiga sezilarli hissa qo‘shilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu sulola hukmronligi ostida Buxoro xonligi hududlarida ilm-fan va madaniyat jadal rivojlanib, Buxoro shahri Movarounnahrning ilmiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Mazkur maqolada Ashtarxoniylar davrida ilm-fan va me’morchilikka oid asosiy yo‘nalishlar va o‘zgarishlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Astraxan, Buxoro, Ubaydullaxon, Balx, Abulfayzxon, Qorabog‘, Ark qal’asi, Tillakori, Nodir Devonbegi.

Ashtarxoniylar sulolasi (Buxoro xonligi) 1599-1753 yillarda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan sulola bo‘lib, ular XVI asrda Turon zaminiga Ashtarxon (Hoji-Tarxon) xonligidan ko‘chib kelishgan. Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasi taxtdan ag‘darilgandan so‘ng, hokimiyat tepasiga Ashtarxoniylar sulolasi keldi. Sulolaning asoschisi Joni Muhammadxon Shayboniylar naslini davom ettirgan bo‘lsa ham, lekin o‘z sulolasini yaratgan. Davrning asosiy hodisalari orasida davlatning markazlashishi, iqtisodiy rivojlanish va madaniy yuksalishni alohida qayd etish lozim.

O‘rta asrlarda bo‘lgani kabi Ashtarxoniylar (Joniylar) davrida ham ko‘p tarmoqli ilm-fan, me’morchilik va amaliy san’at, madaniyat asrlar davomida shakllangan an’analar asosida taraqqiy etib, shuningdek davrga mos yangi yo‘nalishlar ham paydo bo‘ldi. Zamonaviy tadqiqotchilar bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy fanlar rivoji ayniqsa adabiyot, tarixnavislik, falsafiy hamda ijtimoiy-huquqiy yo‘nalishlarida ayniqsa sezilarli bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Bu davrda o‘rta asrlardagi an’anaviy tarixnavislik davom ettirilib, ko‘pgina tarixiy adabiyotlar yaratildi. Chunonchi, Maxmud ibn Valining XVI asr oxiri – XVII asr boshlaridagi Xuroson va Movarounnahr tarixiga oid “Bahr al-asror (Sirlar



dengizi)” asari, Muxammad Yusuf Munshiyning Balx Hokimi Muqimxonga atab yozilgan “Tarixi Muqimxoniy” asari, Xoja Samandar Termiziyning “Dastur al mulk” badiiy-tarixiy asari, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Muhammad Vafo Karmanagiyning “Tuhfat ul-Xoniy” (Bu asarning ikkinchi qismini Saido Nasafiy yozib tugatgan), Abduraxmon Tolening “Tarixi Abulfayzxon” kabi tarixiy asarlarini qayd etib o‘tish lozim. Bu manbalarning aksariyatida xon hokimiyatini uning shaxsini ulug‘lash bilan birga o‘sha davr jamiyatidagi inqirozli holatlar siyosiy tarqoqlik va o‘zaro urushlar natijasi ekanligi to‘g‘ri anglanib, bunday holatlarga bahram berishning asosiy chorasi hokimiyatni markazlashtirish hamda uni adolatli boshqarishdir, degan fikrlar ham ilgari surilgan. Shuningdek, ushbu tarixiy asarlarda musulmon olamida keng tarqalgan afsonalar, rivoyatlar, she‘riy hamda nasriy shakldagi hikmatli so‘zlar, Qur‘on oyatlari hamda diniy kitoblardan parchalar, tarixiy voqealikka o‘ta mahorat bilan birlashtirib yuborilgan. Bu holat ashtarxoniy davri tarixshunosligida ham o‘rta asr an‘analari davom ettirilganligidan dalolat beradi.

XVII asr O‘rta Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarning yirik vakillaridan biri Ibn Muhammadjon Yusuf al-Qorabog‘iydir (1563-1647 yy.) Kavkazning Qorabog‘ qishlog‘ida (Ozarbayjon) tavallud topgan. Ushbu alloma avval Shirvon, Sheroz, keyin esa Samarqandda ijod etib, Buxoroda vafot etgan. Falsafiy yo‘nalishda ijod qilgan Qorabog‘iy tibbiyot, astronomiya kabi tabiiy fanlarni yaxshi bilishi bilan birga, she‘rlar ham yozib turgan. Qorabog‘iy butun dunyoni yagona tanaga o‘xshatib, uning a‘zolari qonuniy bir-biriga bog‘liqligini ta’kidlab shunday yozadi: “Olam yagona vujuddir va barcha mavjud narsalar, mavjudot uning a‘zolari hisoblanadi”. XVII asr O‘rta Osiyodagi mutaffakkirlardan yana biri Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Buxoriy bo‘lib, u al-Mavlaviy taxallusi bilan ham ma’lumdir. Al-Buxoriyning ijodi faqat falsafiy qarashlar bilan chegaralanib qolmay, tarix, she‘riyat, huquq, tilshunoslik kabilarni ham qamrab oladi. Mutaffakirning bizga qadar yigirmaga yaqin asarlari yetib kelgan bo‘lib, bu asarlarda asosiy e’tibor o‘rta asrlarda keng tarqalgan ruhlar va insonning ruhiy kuchlariga qaratilgan. Muhammad al-Buxoriy o‘zigacha bo‘lgan mutaffakkirlardan farq qilgan holda ruhning to‘rt ko‘rinishini ajratadi. Bular tabiiy, o‘simlik, hayvonot va insoniyat ruhlaridir.



Bu davrda me'morchilikning ham o'ziga xos yo'nalishlarda rivojlanganligini kuzatish mumkin. XVII-XVIII asrlarga kelib, mahobatli me'morchilikda mintaqaviy me'morchilik maktablari Xorazm, Movarounnahr, Farg'ona, Toshkent kabilarning o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. Bu davrda Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Termiz kabi ko'plab shaharlar o'rta asrlar an'anaviy tuzilish shakllarini saqlab qoladi. Ashtarxoniylar davrida barpo etilgan me'morchilik obidalari Buxoro xonligi hududidagi diniy va ma'muriy hayotning muhim belgilari sifatida saqlanib qolgan. Ushbu obidalar me'morchilikning o'ziga xos uslublarini aks ettirgan va ko'plab yodgorliklar keyingi davrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Quyida Ashtarxoniylar davrida qurilgan asosiy me'morchilik obidalari keltirilgan:

- Abdulazizxon madrasasi (1652 yil, Buxoro). Mazkur inshoot Ashtarxoniylar sulolasining vakili Abdulazizxon tomonidan qurilgan. Bu madrasa o'zining ganchkori va koshin ishlari bilan mashhur. Madrasa nafaqat ta'lim markazi sifatida xizmat qilgan, balki diniy va madaniy tadbirlar o'tkazilgan joy bo'lgan. Uning peshtoqi va ichki bezaklari juda murakkab naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, o'sha davr me'morchiligining eng yuqori namunasidir.

- Mag'oki Attori masjidi (qayta ta'mirlangan, Buxoro). Mag'oki Attori masjidi Ashtarxoniylar davrida qayta ta'mirlangan qadimiy masjidlardan biridir. Bu masjid dastlab zardushtiylik ibodatxonasi o'rnida qurilgan bo'lsa-da, keyinchalik islomiy ibodatxona sifatida foydalanilgan. Ashtarxoniylar hukmdori Abdulazizxon davrida (1541—1542-yillar) binoning yuqori qismi, gumbazlari qayta qurilgan. Masjidning arxeologik va madaniy ahamiyati juda katta.

- Buxoro Ark qal'asi (ta'mirlangan va qayta qurilgan). Buxoro Ark qal'asi Ashtarxoniylar davrida ham muhim rol o'ynagan. Ushbu qal'a Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo'lib, davlatning ma'muriy va siyosiy markazi hisoblangan. Ashtarxoniylar davrida Arkning bir qismi qayta tiklanib, yangidan qurilgan binolar bilan boyitilgan. Ark ichida saroylar, masjidlar va davlat idoralari joylashgan edi.

- Tillakori madrasasi qurilishi 1646-yilda Mirzoyi karvonsaroyi o'rnida o'zbeklarning olchin urug'idan chiqqan Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir



buyrug‘i bilan boshlangan. XV asrda poydevori va devorlari foydalanganligi sababli eskirgan. Qurilish boshlangan vaqtda Samarqanddagi masjidleri (Bibixonim va Alike Ko‘kaldosh) vayronaga aylangan edi va loyihalash jarayonida madrasa binosida oliy diniy maktab va juma masjidini birlashtirishga qaror qilingan. Qurilish va pardozlash ishlari 14 yil davom etgan va Yalangto‘sh Bahodir vafotidan keyin 1660-yilda yakunlangan. Ashtarxoniylar davrida ilm-fan va me‘morchilik yuksalishi Movarounnahr madaniy va ilmiy rivojlanishida muhim o‘rin tutdi. Olimlarning ilmiy faoliyati va me‘morlarning san‘ati bugungi kungacha yetib kelgan yodgorliklar orqali namoyon bo‘ladi. Bu davrda yaratilgan me‘moriy obidalar va ilmiy asarlar nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston tarixi 2 qism B. J.Eshov, A.A. Odilov 400-402 betlar
2. Bobojonov, X. “O‘rta Osiyo me‘morchiligi tarixida Ashtarxoniylar davri.” T.: Fan nashriyoti, 2015